NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING AMALIY USULLARI

Normatova Maftuna Kengash qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
Kamolova Gulshoda Jobir qizi
Maxsus pedagogika, (Logopediya) yo'nalishi
3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753361

ANNOTATSIYA

Maqolada nutq nuqsoniga ega bolalarning maktabga tayyorlashda amaliy usullar, bolalarni maktab muhitiga psixologik jihatdan tayyorlash usullari va bu usullar, bolalarning maktabga muvaffaqiyatli integratsiyasini va ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatini ta'minlash. Bolalarga maktabdagi turli vaziyatlarni oldindan ko'rib chiqish orqali ularning yangi muhitga moslashuvini va zarur ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini ta'minlash usulari haqida so'z boradi.

KALIT SO'ZLAR

Nutq, amaliyot, anglash, maktab, psixologik usul, integratsiya, muloqot, inversiya.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются практические методы подготовки детей с нарушениями речи к школе, методы психологической подготовки детей к школьной жизни и то, как эти методы обеспечивают успешную интеграцию детей в школу, их социальную и академическую успеваемость. Методы, обеспечивающие адаптацию детей к новой среде и приобретение ими необходимых социальных навыков путем заблаговременного оповещения о различных ситуациях в школе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Речь, практика, понимание, школа, психологический метод, интеграция, коммуникация, инверция.

ABSTRACT

The article discusses practical methods for preparing children with speech impairments for school, methods of psychologically preparing children for the school environment and how these methods ensure the successful integration of children into school and their social and academic success. Methods of ensuring children's adaptation to the new environment and the acquisition of the necessary social skills by providing them with advance warning of various situations at school.

KEYWORDS

Speech, practice, understanding, school, psychological method, integration, communication, inversion.

Kirish. Nutq nuqsoniga ega bolalarning maktabga tayyorlashda amaliy usullar nutq nuqsoniga ega bolalarni maktab muhitiga psixologik jihatdan tayyorlashda muhim roʻl oʻynaydi. Bu usullar, bolalarning maktabga muvaffaqiyatli integratsiyasini va ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatini ta’minlash uchun zarurdir.

Bolalarga maktabdagi turli vaziyatlarni oldindan koʻrib chiqish imkonini berish orqali ularning yangi muhitga moslashuvini va zarur ijtimoiy koʻnikmalarni oʻzlashtirishlarini ta’minlash.

Maktab hayotidagi turli vaziyatlarni, masalan, tanaffusda oʻynash, darsda qoʻl koʻtarib javob berish, yoki yangi doʻstlar orttirish kabi holatlar yuzasidan roʻlli oʻyinlar oʻtkazish.

- Ijtimoiy hikoyalar.

Bolalarga maktab hayoti haqida oldindan tushuncha berish va ularni turli ijtimoiy vaziyatlarga psixologik jihatdan tayyorlash.

Maktab hayotiga oid ijtimoiy hikoyalar oʻqish yoki bolalar bilan birgalikda bu kabi hikoyalar yaratish. Bu usul, bolalarning maktabdagi turli ijtimoiy vaziyatlarga reaksiyalarini oldindan koʻrib chiqishlariga yordam beradi.

- Muhitni tanishtirish.

Bolalarning maktabga boʻlgan qoʻrquv va bezovtaliklarini kamaytirish orqali ularning maktab muhitiga moslashuvini osonlashtirish.

Maktabga tashrif buyurishlar tashkil etish, bolalarni sinf xonalariga, oʻyin maydonchalari va boshqa muhim joylarga olib borish, oʻqituvchilarni va maktab xodimlarini oldindan tanishtirish.

- Muloqot mahoratlarini rivojlantirish.

Nutq nuqsoniga ega bolalarning muloqot qilish qobiliyatlarini mustahkamlash orqali ularning tengdoshlari va kattalar bilan samarali aloqa o‘rnatishlariga yordam berish.

Muloqot qilishni o‘rgatuvchi maxsus mashqlar va o‘yinlar, jumladan, navbat bilan gapirish, his-tuyg‘ularni ifodalash, va boshqalarga quloq solish mashqlarini o‘tkazish.

- O‘z-o‘zini himoya qilish ko‘nikmalari

Bolalarni o‘z fikrlarini himoya qilish va zarurat tug‘ilganda o‘zlarini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘z fikrini ifoda etish va zarurat tug‘ilganda o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish. Bu, bolalarning o‘ziga ishonchini oshiradi va maktabdagi potentsial qiyinchiliklarga tayyor turishlarini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda amaliy usullar jarayonida asosiy vositalardir. Ro‘lli o‘yinlari, ijtimoiy hikoyalar, muhitni tanishtirish, muloqot mahoratlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali, bolalar maktabga osonroq moslashadilar va ularning ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatlari oshadi. Bu usullar, o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalar tomonidan bolalarni maktab muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda samarali qo‘llanishi mumkin.

1.bosqich – bolaning mavjud verbal va noverbal muloqot vositalarini faollashtirish.

2.bosqich – yangi varbal va noverbal vositalarni shakllantirish, - “O‘zim va do‘stlarim” tematik bloki doirasida mavjudlarini aniqlashtirish va faollashtirish; piktogrammalar bilan tanishish; ikki yoki undan ortiq belgilarning bir vaqtning o‘zida birlashmalarini faollashtirish.

3.bosqich – “Mening uyim, mening oilam” mavzuli bloki doirasida yangi verbal va noverbal vositalarni shakllantirish, mavjudlarini aniqlashtirish va faollashtirish; ikki yoki undan ortiq belgilar kombinatsiyasining ketma-ketligini tuzish qobiliyatini shakllantirish.

4.bosqich – “Mening derazam tashqarisidagi dunyo” tematik bloki doirasida yangi og‘zaki va noverbal vositalarni shakllantirish, mavjudlarini aniqlashtirish va faollashtirish; ikki yoki undan ortiq belgilarning bir vaqtda assotsiatsiyasini qurish va ikki yoki undan ortiq belgilar kombinatsiyasining ketma-ketligini yaratish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT VOSITALARINI SHAKLLANTIRISHGA OID QO‘LLANGAN ISH USULLARIDAN:

1) Predmetlar va rasmlarga qarashda ularni nomlash. Biz “Qaytar”, “Nomini ayt”, “Ayt” so‘zlarini ishlatmadik, lekin “Top”, “Qanday qichqiradi”, “Kim yashirdi”, “Kim chiqdi” (rasmlarni yig‘ishda, kesma tasvirlarni tanib olish) savollardan foydalanish mumkin;

2) To‘satdan paydo bo‘lgan predmetlar va rasmlarni nomlash. Biz quyidagi o‘yin usulidan foydalandik: - “Ajoyib qopcha” (yoki “Sehrli qalpoqcha”). Bola predmetlarni, rasmlarni nomlaydi;

3) Tasviriy ko‘rgazma stol o‘yinlari: loto; domino kabi o‘yinlar to‘plami.

To‘plamga o‘yin maydoni, hayvonlar yoki odamlarning haykalchalari va kubik kiradi. Shakllarni maydon bo‘ylab harakatlantirib, bola qaysi rasmga tushganiga qarab turli og‘zaki harakatlarni bajaradi. Harakat sxemalari o‘yin maydonining turli sektorlarida tasvirlangan: baraban - barabanni tayoq bilan urishva “bom-bom” deyish, trubka - trubka o‘ynash va “doo doo” kuylash, to‘p - to‘pgaurish “op-op” deyish va sh.k. “juftlar”. Juftlangan rasmlar bola yoshiga mos bo‘lgan darajada nomlashi yoki birga taqlid qilishi mumkin bo‘lgan narsalar yoki harakatlar tasvirlari bilan ishlatiladi. Rasmlar tasvir pastga o‘girilgan holda joylashtiriladi, logoped va bola navbat bilan rasmlarni ikkitadan ochadi. Bu vaqtda bola rasmlarga nom beradi. O‘yinchilarning vazifasi bir xil rasmlarni ochishdir. Kim bir xil tasvirlarni ochsa, uni o‘ziga oladi. Eng ko‘p rasm to‘plagang‘alaba qozonadi.

4) Stol teatri, harakatlanuvchi rasmlar yordamida bolaga mos bo‘lgan leksik materiallarni o‘z ichiga olgan matnlarni sahnalashtirish;

5) Fonatsiya va harakatni sinxronlashtirish uchun mashqlar (yuqorida tavsiflangan). So‘zlarni va tovush taqlidini faollashtirish uchun biz so‘zning nomi, tovush taqlidi endi bola uchun maqsad emas, balki boshqa faoliyatni amalgaoshirish vositasi bo‘lgan vaziyatlarni loyihalashtirsh.

Tadqiqot metodologiyasi.

Nutq nuqsoniga ega bolalar logopedik mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida bir qator texnologiyalardan foydalanish:

“step by step” texnologiya - amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonining to‘rt pog‘ona doirasida kechadigan texnologiyadir.

Bu texnologiya nutq nuqsoniga ega bolalarga bir xilda takrorlanadigan mayda qo‘l motorikasini tez va mukammal o‘rganib olishlariga yordam beradi. Step by step texnologiya qo‘llanilganda, bolalar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so‘ng uni takrorlaydilar va to mukammal o‘zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu texnologiya quyidagi bosqichlardan iborat:

- Tushuntirish;
- Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish;
- Ko‘rsatilgan tarzda qaytarish;

- Mashq qilish.

Step by step texnologiyasinning asosiy belgisi – bolalarning harakatlari logoped ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

Step by step texnologiyasini nutq nuqsoniga ega bolalarda qo‘llashning afzalliklari:

- Bolalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- Vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- Oddiy ish bosqichlarini o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

“erkin assotsiasiyali” texnologiya - evristik faoliyatni yuritish yuqori darajadagi faoliyatni baholashda, berilgan vazifalarni mustaqil bajara olishga imkon yaratadi. Bu texnologiyani qo‘llash orqali og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan nutq nuqsoniga ega bolalarga muammoning yechimini topishni jadallashtiradi.

Bu texnologiyada assosiasiyaning vujudga kelishi tufayli yechillishi zarur bo‘lgan muammo komponentlarining, tashqi muhitning o‘zaro bog‘lanishlari ro‘yobga chiqadi. Tashqi muhit bilan ijodiy jamoaning ijodkorona fikrlari to‘qnashuvi imkonini tug‘diradi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda ishni tashkil etishda guruhli mashg‘ulotlarda har bir nutq nuqsoniga ega bolalar faol ishtirok etishi, bolalar o‘z assotsiasiyasini yoki fikrini taklif etishi zarur hisoblanadi. Bolalarning fikrlarini mujassamlashtirish orqali berilgan vazifalarning yechimini topishga o‘rgatiladi.

“inversiya” texnologiyasi ijodiy vazifalarni yechimini izlab topishga, yangi holatlarda g‘oyalarni yechimini topishga qaratilgan. Bu metod muammolar yechimiga yangicha yondashish, eski qoliplardagi fikrlardan holi ravishdagi insonni talab etadi. Yangicha sharoitda mantiqiy fikr yuritish. Yangicha yechim topish, muammolar yechimini topishga, g‘oyalar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Inversiya metodi dualizm prinsipiga yoki qonuniyatiga asoslanadi. Fikr yuritishda qarshi tomondan yondashuvni talab etadi. Ijodiy fikr yuritishni talab etadi. Nutq nuqsoniga ega bolalar berilgan vazifalarni analiz va sintez, mantiqiy va intuitiv, sintetik va dinamik xarakteristik tomondan yondashuvni talab etadi. Bolalarga vazifani yechimini konkret yoki abstrakt, real va fantastik, ajratib yoki birlashtirib solishtirish orqali yechimlar topishga o‘rgatiladi.

“sinetik” metod – (turli elementlarni birlashtiruvi)

Bu metod ijodkorlik faoliyatini stimullashtirish uchun alohida sharoit,muhit yaratadi, kutilmaganda yangi analoglarning va assotsiasiyaning tug‘ilishi yoki yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Sinetik metod ishtirokchilari muammo bilan tanishtiriladi va jamoa bo‘lib ijodiy yechim topish mexanizmi tushuntiriladi. Uning yechimi bo‘yicha nutq nuqsoniga ega bolalarga tushuntirish ishlari olib boriladi. Bolalarga tasavvur etish,

assotsiativ fikrlash, original metodlarni qo‘llash va o‘yinli elementlar tushuntiriladi. O‘rgatiladi va ularda fikrlarni uyg‘otishga muhit tug‘diriladi.

Sinetik metod qo‘llashda avvaldan muammoni aniq berishdan chekinishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunday holda masalaning yechimi biroz neytrallanishi kuzatiladi.

Shu sababli muammoning ayrim belgilari tahlil etilib, asosiy muammo yechimi tomon boriladi. Ya’ni muammoni qayta shakllantirish, qidirish, izlash, muammoning yechimiga kiritiladi.

Bu metod orqali muammoni hamkorlik asosida qayta shakllantirish yaxshi natijalar beradi.

“step by step”, “inversiya”, “sinetik”, “analog”ni aniqlash, “senkveyn”ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar.

maktabga nutqiy jihatdan tayyorlashdagi vazifalar: shakllangan muloqot vositalarini turli xil muloqot modellarida, turli xil muloqot shakllarida va turli maqsadlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shakllangan muloqot vositalarini turli xil muloqot modellarida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Modellarda shakllangan muloqot vositalaridan foydalanish bo‘yicha mashqlar: “bola – katta” (vositachi o‘yinchoq orqali muloqot qilish, fotosurat - vositachi va bevosita, vositachisiz);

“bola-bola” (bir xil turdagi kommunikatsiya buzilishi bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi “simmetrik” o‘zaro ta’sir va “assimetrik” - turli kommunikatsiya buzilishi bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi);

“bola - bolalar (passiv kuzatuvchi rolida, boshqa bolalar uchun harakatlarni takrorlash rolida, izdosh va pedagog rolida, 3-4 kishilik kichik guruhda va katta guruhda”).

Shakllangan muloqot vositalarini turli xil muloqot shakllarida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Muloqotning vaziyatli-ishbilarmonlik, vaziyatdan tashqari- kognitiv va vaziyatdan tashqari-shaxsiy shakllarida muloqot vositalaridan foydalanish mashqlari.

Faollashtirish usullari:

Muloqotning vaziyatli-ishbilarmonlik shakli – predmet va tasviriy ko‘rgazmaga ega didaktik o‘yinlar, predmetli va hikoyali o‘yinlar;

Muloqotning vaziyatdan tashqari-kognitiv shakllari - kognitiv xarakterdagi o‘yinlar va mashqlar, o‘qish - mazmunini keyinchalik tahlil qilgan holda kitoblarni ko‘rish;

Shaxsiy tajribaga tayanish, fotosuratlarni ko‘rish, matnlarni tahlil qilish va axloqiy mazmunga ega bo‘lgan rasmlarni tahlil qilish, ularni o‘ynash, axloqiy jihatdan muhim vaziyatlarni modellashtirish, piktogrammalar yordamida yaxshi - yomon, yaxshi ko‘rish - yoqtirmaslik kabi tushunchalarni shakllantirish, so‘zlashva belgilashda qo‘llanadi.

Umumiy madaniy ko‘nikmalarni shakllantirish (xayrlashish, salomlashish, tanishish, murojaat qilish, kechirim so‘rash, tasalli berish, hamdardlik bildirish, minnatdorchilik bildirish).

Usullar:

Vositachi o‘yinchoq, vositachi rasm yordamida tashkil etilgan dialog savollariga javoblar (verbal va noverbal). Sahnalashtirilgan vaziyat asosidaso‘roq so‘zsiz va ijobiy yoki salbiy javobni talab qiladigan savollarni (verbal va noverbal) o‘ylab topish. Masalan, “bu to‘pmi?”, “qiz chizayaptimi?”, “konfet shirinmi?” Va sh.k.;

Bir predmet, rasm, fotosurat, sahnalashtirilgan vaziyat bo‘yicha turli savollarni tuzish;

Tushuntirishni talab qiluvchi pedagogning to‘liq bo‘lmagan ko‘rsatmasi; munosabatni ifodalash (verbal va noverbal), matnda taqdim etilgan va

Syujetli rasmda, fotosuratlar turkumsida yoki o‘yinchoqlar, stol teatri yordamida o‘ynalgan vaziyatni baholash;

Vositachi o‘yinchoq tengdoshlarning verbal va noverbal shakldagi harakatlari va javoblariga munosabatni ifodalash va baholash;

Syujetli rasmda tasvirlangan vaziyatga mos ravishda bolaning yuzifodalarini tanlashni taklif qiladigan “bo‘sh yuzlar” (chizish, yuzida tasvirlash, taklif qilingan tasvirlardan tanlash, qahramonning holatini nomlash);

Vazifalarni birga bajarishda, didaktik o‘yinlarda tengdoshlarga harakat va ta’sirni tartibga solish. Ushbu o‘yinlar izchil, ajralmas xususiyatga ega, har bir o‘yinda bir emas, balki korreksion va logopedik bir nechta yo‘nalishlari amalga oshiriladi.

Ish ta’lim bosqichlariga mos keladigan “men va do‘stlarim”, “mening uyim, mening oilam”, “mening oilam tashqarisidagi dunyo” mavzuli bloklari bo‘yicha olib borildi. Bolalar turli vaziyatlarda bir xil vositalardan foydalanishda qayta-qayta mashq qiladilar.

Xulosa va takliflar.

Savodxonlikka o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlarida nutqiy material (tovushlar, bo‘g‘inlar, umumiy so‘zlar, jumlalar, tez aytishlar) mavzular bo‘yicha emas, balki o‘rganilayotgan tovushning maksimal ifodalangani asosida guruhlandi. Shu bilan birga, bir mashg‘ulotda tuzilgan nutq birliklari boshqa turdagi

mashg‘ulotlarda mustahkamlandi (talaffuzga oid mashg‘ulotlarda kommunikativ vositalar ham qo‘llandi).

Muloqot vositalari nafaqat logopedik mashg‘ulotlarda, balki kundalik hayotda ham tabiiy muloqot holatiga kiritildi. Bunda korreksion ta’lim va tarbiyajarayonining barcha ishtirokchilari (o‘qituvchilar, ota-onalar) logopedik ishning natijalari to‘g‘risida xabardor qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova M.Y. “Logopediya” Toshkent – 2019
2. Mo‘minova L.R.-“Logopediya tekshiruvi va bolalarni o‘qitish” Toshkent – 1992 y.
3. Mo‘minova L.R. – “Logopediya” Toshkent – 1994 y.
4. Mo‘minova L.R. , Ayupova M.Yu. _ Nutq terapiyasi -T, 1993 yil.
5. L.R.Mo‘minova . Nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. - T., 2012 yil.
6. Mo‘minova L.R “Maxsus psixologiya” Toshkent 2016 y
7. M.Normatova.–Nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlash: Impress media nashriyoti 2025.
8. M.U. Xamidova Maxsus pedagogika. Toshkent-2018. 95-bet
9. D.A.Nurkeldiyeva, M.U. Xamidova Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar diagnostikasi. Toshkent-2016. 109-bet
10. Axrorova, S. A. Logopedik texnologiya: o‘quv qo‘llanma / S. A. Axrorova. - Jizzax: Ilm nuri print, 2024